



BARQAROR TURIZM TAMOYILLARINI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TATBIQ ETISH

Rashidova Gulhayo Alisherovna

*Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti
Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi 15/24-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida barqaror turizm tamoyillarini joriy etish masalalari yoritilgan. Unda turizm sohasida ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash yo‘llari, shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha takliflar keltirilgan. Maqolada mamlakatimizdagi tabiiy va madaniy meros obyektlarini asrash, mahalliy aholini turizm sohasiga jalb etish hamda ekoturizmni rivojlantirishning dolzarb jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *barqaror turizm, ekologik muvozanat, mahalliy aholi, ekoturizm, iqtisodiy foyda, madaniy meros.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы внедрения принципов устойчивого туризма в условиях Узбекистана. Раскрыты пути обеспечения экологической, экономической и социальной устойчивости в сфере туризма. Также приведены предложения по сохранению природного и культурного наследия, вовлечению местного населения и развитию экотуризма.*

Ключевые слова: *устойчивый туризм, экологическое равновесие, местное население, экотуризм, экономическая выгода, культурное наследие.*

Abstract: *This article discusses the implementation of sustainable tourism principles in the context of Uzbekistan. It highlights ways to ensure environmental, economic, and social sustainability in tourism. The paper also provides recommendations for preserving natural and cultural heritage, engaging local communities, and promoting ecotourism.*

Keywords: *sustainable tourism, ecological balance, local community, ecotourism, economic benefit, cultural heritage.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab turizm sohasining jadal rivojlanishi insoniyat hayotining barcha jabhalariga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, turizmning haddan ziyod o‘sishi ekologik muvozanatga, tabiiy resurslarning kamayishiga va madaniy qadriyatlarning buzilishiga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli bugungi kunda “barqaror turizm” tushunchasi nafaqat muhim, balki zaruratga aylangan. Barqaror turizm — bu hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirgan holda, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini ta‘minlash imkoniyatiga zarar yetkazmaydigan turizm shaklidir. O‘zbekiston kabi boy tabiiy resurslar va qadimiy madaniy merosga ega mamlakat uchun barqaror turizm tamoyillarini tatbiq etish katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son Farmoni hamda “Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini



tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 18-fevraldagi PQ-135-son qarori ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.

Farmon va qaror ijrosi natijasida turizm sohasida innovatsion boshqaruv tizimlari, raqamlashtirish jarayonlari hamda xalqaro hamkorlik mexanizmlari keng joriy etilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning jahon turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Barqaror turizmning mohiyati va tamoyillari:

Barqaror turizm atamasi ilk bor 1987-yillarda BMTning atrof-muhit bo‘yicha hisobotlarida paydo bo‘lgan. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Ekologik barqarorlik – turizm faoliyati tabiatga zarar yetkazmasligi, resurslardan oqilona foydalanish.

2. Iqtisodiy barqarorlik – turizm orqali mahalliy iqtisodiyotga foyda keltirish va doimiy daromad manbai yaratish .

3. Ijtimoiy barqarorlik – turizm jarayonlarida mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish, ularning hayot sifatini oshirish.

4. Madaniy barqarorlik – milliy an‘analari, qadriyatlar va tarixiy merosni asrab-avaylash.

Bu tamoyillar uyg‘un holda amalga oshirilsa, turizm nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik va ijtimoiy muvozanatni ham ta‘minlaydi.

O‘zbekiston sharoitida barqaror turizmning ahamiyati:

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan, tabiiy landshaftlari, tarixiy shaharlar va madaniy boyliklarga ega davlatdir. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar dunyo miqyosida mashhur bo‘lib, ularning qadimiy me‘moriy yodgorliklari UNESCO merosi sifatida e‘tirof etilgan. Shu bilan birga, Boysun tog‘lari, Chotqol qo‘riqxonasi, orolbo‘yi, Zarafshon vodiysi kabi tabiiy hududlar ekologik turizm uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Barqaror turizmni rivojlantirish O‘zbekistonda bir nechta muhim maqsadlarga xizmat qiladi:

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

mahalliy aholiga yangi ish o‘rinlari yaratish;

ekologik ta‘limni rivojlantirish;

mamlakat imidjini xalqaro maydonda mustahkamlash.

O‘zbekistonda barqaror turizmni joriy etish bo‘yicha davlat siyosati:

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati barqaror turizmni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. 2019-yilda qabul qilingan “2025-yilgacha mo‘ljallangan Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi”da ekologik, etnik va agroturizm yo‘nalishlariga alohida o‘rin berilgan . Shuningdek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida sayyohlik zonalarini obodonlashtirish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik tozalikka asoslangan turizm infratuzilmasini yaratish ishlari olib borilmoqda. Qoraqalpog‘istondagi orol dengizi atrofi, Surxondaryodagi Boysun tog‘lari, Namangandagi Chodak va Chust hududlari ekologik turizm markazlariga aylantirilmoqda.

Mahalliy aholini jarayonga jalb etish:

Barqaror turizmning eng muhim tamoyillaridan biri – mahalliy aholining faol ishtiroki. Chunki turizmni mahalliy resurslarsiz tasavvur etish qiyin. O‘zbekistonning ko‘plab qishloqlarida “mehmanxona oilada” yoki “homestay” tizimi rivojlanmoqda. Bu tizim nafaqat



turistlarga milliy hayot tarzini ko‘rsatadi, balki aholi uchun daromad manbai ham bo‘ladi. Masalan, Farg‘ona vodiysi, Boysun, Qashqadaryo, Nurota kabi hududlarda mahalliy ayollar milliy hunarmandchilik buyumlarini tayyorlab, turistlarga sotmoqda. Bu orqali ular iqtisodiy mustaqillikka erishmoqda va o‘z madaniyatini targ‘ib qilmoqda.

Ekoturizm – barqaror rivojlanishning asosiy yo‘nalishi:

Ekoturizm barqaror turizmning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U tabiatni asrab-avaylash, ekologik madaniyatni shakllantirish va mahalliy aholining daromadini oshirishga qaratilgan. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Misol uchun:

Zomin milliy bog‘ida ekologik yo‘laklar tashkil etilgan ;

Chatqol biosfera rezavatida ilmiy-tadqiqot asosida sayyohlik dasturlari ishlab chiqilmoqda;

Orol dengizi atrofida “eko-safari” loyihalari yo‘lga qo‘yilgan.

Bu tashabbuslar tabiatni himoya qilish bilan bir qatorda, yangi turizm segmentlarini yaratmoqda.

Muammolar va to‘siqlar:

Shunga qaramay, barqaror turizmni rivojlantirishda bir qancha muammolar mavjud:

1. Ekologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani;
2. Turistik obyektlarda chiqindi boshqaruvi tizimining sustligi;
3. Mahalliy aholi o‘rtasida ekologik savodxonlikning pastligi;
4. Barqaror turizm bo‘yicha mutaxassislar yetishmasligi;
5. Ayrim hududlarda transport va kommunikatsiya muammolari.

Bu muammolarni hal qilish uchun davlat, xususiy sektor va jamoatchilik hamkorlikda ishlashi zarur.

Taklif va tavsiyalar:

1. Ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish – ekologik yo‘laklar, chiqindi qayta ishlash tizimlarini yaratish.

2. Ta‘lim tizimida barqaror turizm kurslarini joriy etish – yoshlar ongida ekologik fikrlashni shakllantirish.

3. Mahalliy aholiga grant va kreditlar ajratish – ularning turizm biznesiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

4. Hududiy brending – har bir viloyatning o‘ziga xos turizm brendini yaratish orqali barqaror marketingni yo‘lga qo‘yish.

5. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik – BMT, UNWTO, UNESCO bilan qo‘shma loyihalarni ko‘paytirish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston sharoitida barqaror turizm tamoyillarini tatbiq etish — bu nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki tabiat va jamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtirish yo‘lidir. Tabiiy boyliklar, milliy madaniyat va xalq mehmondo‘stligi mamlakatimizni jahon turizm bozorida alohida o‘rin egallashiga zamin yaratadi. Eng muhimi, barqaror turizm – bu har bir fuqaroning ekologik mas‘uliyatini oshiruvchi, kelajak avlodlarga pok tabiat va boy meros qoldirishga xizmat qiluvchi yo‘ldir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Amonboyev, S.Xalilov. Barqaror turizm rivojlanishi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 — 5-bet.
2. Baxshi, A. (2019). Barqaror turizm: nazariy asoslar va amaliyot. Tashkent:O‘zbekiston turizm universiteti nashriyoti.
3. Hassanov, S. (2020). Barqaror turizm va milliy turizm siyosati. Tashkent:O‘zbekiston turizm akademiyasi.
4. 475-сон 25.08.2022. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.